



ERKIN VOHIDOV SHE'RLARINING G'OYAVIY MAZMUNI

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish

metodikasi kafedrası assistenti

Yakubova Safiya Hamdamovna.

E-mail: safiyayakubova1231@gmail.com

Tel: +998889300021

G'ayratova Malika Zayniddin qizi

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

O'TVA yo'nalishi 1-bosqich talabasi

gayratovamalika5@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada millat qalbining eng nozik torlariga tegib, ularni uyg'ota oladigan so'z sehri egasi — Erkin Vohidov she'rlarining mazmuniy g'oyalari haqida so'z boradi. Uning she'rlarida insonparvarlik, ezgulik, mehr-oqibat, halollik, va adolat g'oyalari markaziy o'rinni egallaydi. Shoir o'z she'rlarida an'anani yangilaydi, yangilikni esa milliylik ruhi bilan bezaydi. Uning har bir misrasi-o'zligini anglagan, Vatanga muhabbatini yurakdan his etgan insonning yurak sadosidir. Shoir ijodida milliy an'ana va o'ziga xoslik uyg'unlashib, bugungi avlodni ruhiy poklik, ezgulik va fidoyilikka chorlaydi.

Kalit so'zlar: Inson, ma'naviy kamolot, uyg'unlik, ezgulik, falsafiy g'oya, yovuzlik, ramz, insoniy qadriyat, ichki Boхидова dunyo.

Идейное содержание стихотворений Эркина

Аннотация: В данной статье речь пойдёт об идейно-содержательных особенностях стихов Эркина Вахидова — мастера слова, способного затронуть самые тонкие струны души народа и



пробудить их звучание. В его стихах центральное место занимают идеи гуманизма, доброты, милосердия, честности и справедливости. Поэт обновляет традицию, а новаторство украшает духом национальности. Каждая строка его стихов — это отклик сердца человека, осознавшего свою сущность и искренне любящего Родину. В творчестве поэта гармонично сочетаются национальные традиции и самобытность, призывая современное поколение к духовной чистоте, добру и самоотверженности.

Ключевые слова: человек, духовное совершенствование, гармония, доброта, философская идея, зло, символ, человеческие ценности, внутренний мир.

The ideological content of Erkin Vohidov's poems

Annotation: This article discusses the thematic and conceptual features of Erkin Vohidov's poetry — the work of a master of words who can touch the most delicate strings of the nation's soul and awaken them. In his poetry, the ideas of humanism, kindness, compassion, honesty, and justice take a central place. The poet renews tradition and adorns innovation with a spirit of national identity. Each of his verses is the heartfelt echo of a person who has realized their essence and deeply loves their homeland. In his creative work, national tradition and individuality harmoniously intertwine, calling the younger generation to spiritual purity, goodness, and devotion.

Keywords: human, spiritual perfection, harmony, kindness, philosophical idea, evil, symbol, human values, inner world.

Kirish: 1936- yil 28- dekabrda, Farg'ona viloyati, Oltiariq tumani, Novobod qishlog'ida tug'ilgan, XX asr o'zbek adabiyotida O'zbekiston Qahramoni deb tanilgan Xalq shoiri Erkin Vohidov ijodiyotining o'ziga xos xususiyati va shoir she'rlarining o'zbek adabiyotida tutgan o'рни xususida



fikr- mulohazalar bayon etiladi. Uning she'rlarida yangicha ma'no kasb etgan "Tong nafasi" devonini bezab turgan o'zining falsafiy teranligi, badiiy yuksakligi bilan boshqa asarlardan ajralib turuvchi asar- "Inson" she'ridir.

Mumtoz she'riyatimizda inson siymosi, uning ruhiy olami haqida ko'plab asarlar yaratilgan bo'lsada, shoir "Inson" she'rida shunchaki obrazini emas, balki yaratuvchi qudratni anglay oladigan mavjudod timsolini yaratdi. Erkin Vohidov mumtoz an'analarni davom ettirish davomida, ularni zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashtirdi. U insonni hayotning markaziga qo'yib, uning ma'naviy kamolotini, ezgulik va yaratuvchanlik sari intilishni ulug'ladi.

"Inson" she'ri shoir ijodining g'oyaviy cho'qqilaridan biri bo'libgina qolmay, unda inson, tabiat va jamiyat o'rtasidagi uyg'unlik ramziga aylangan.

She'rning chuqur ma'nosi shundaki, Erkin Vohidov insonni hayotning tomoshabini emas, balki uni yaratib, unga ma'no baxsh etuvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Shu jihatdan "Inson" she'ri shoirning nafaqat falsafiy tafakkurini, balki millat, Vatan va barchaning umumqadriyatlariga ega bo'lgan chuqur e'tiqodini ifoda etadi. Erkin Vohidovning bu she'rigagina emas, balki boshqa she'rlari ham o'z davrida o'zbek o'quvchisiga yangicha fikrlash, dunyoqarash, o'zligini anglash, milliy g'ururni his etish imkonini bergan. She'r keyinchalik turli to'plamlarga kiritilgan, adabiy tahlil va tadqiqotlarda alohida o'rganilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mazkur maqolani yozishda foydalanilgan manbalar Erkin Vohidov ijodining g'oyaviy- badiiy mohiyatini chuqur yoritishga xizmat qiluvchi turli janrdagi ilmiy, publitsistik va adabiyotshunoslik izlanishlaridan iborat. Erkin Vohidovning shaxsiyati, ijodiy qarashlari va poetik tamoyillarini tahlil



qiluvchi fundamental tadqiqotlar Shukur Qurbonning “Erkin Vohidov saboqlari” asaridadir. Unda shoirning milliy mafkura, ma’naviy yetuklik, vatanparvarlik va insonparvarlik g’oyalari keng yoritiladi. Ko’pchilikka aniq bo’lgan “Ishq savdosi” kitobi bevosita shoirning o’z asari bo’lib, bu kitob yozuvchining o’zini badiiy dunyosini, uning lirikasidagi sevgi, sadoqat, ezgulik, ruhiy poklik kabi mavzularni to’g’ridan to’g’ri matnlar asosida o’rganish imkonini beradi. Ushbu manbadan foydalanish shoirning poetik uslubini tahlil qilishda amaliy asos yaratadi. Shoirning xalqchil ruhini, ijtimoiy mavzularni yoritishdagi betakror yondashuvini ochib beradigan Tohir Malikning “Erkin Vohidov- xalq dardini kuylagan shoir” nomli publitsistik maqolasidir. Bu manba Vohidovning keng ommaga yaqinligi va milliy ruhning ifodachisi sifatidagi qiyofasini o’rganishda yordam beradi. Ozod Sharafiddinovning “Ijod mashaqqati” kitobi o’zbek adabiyotining yirik tahlilchisi sifatida shoir ijodiga berilgan chuqur ilmiy, estetik baholarni o’z ichiga oladi. Sharafiddinov adabiy jarayon kontekstida Erkin Vohidov she’riyatining o’rni va badiiy xususiyatlarini tahlil qilgan. Obidaxon Fayzullayevning “Erkin Vohidovning so’z qo’llash mahorati” nomli ilmiy maqolasi shoirning til ustidagi ishlari, leksik tanlovdagi nozikliklari, badiiy vositalardan mahorat bilan foydalanishi haqida fundamental ilmiy xulosalar beradi. Ushbu izlanishlar shoir she’riyatining lingvopoetik jihatlarini ochishda alohida ahamiyat kasb etadi. Shoirning xalq tomonidan suyulganligi, uning adabiy merosining bugungi ma’naviy hayotdagi ahamiyatini D. M. Nasriyevaning “El ardog’idagi shoir” maqolasida yaqqol ko’rishimiz mumkin. Bu manba Erkin Vohidov ijodining zamonaviy talqini va ijtimoiy ahamiyatini baholashda qo’llanildi. Yuqoridagi shoir ijodi va faoliyatiga oid manbalar o’zaro bir- birini to’ldiradi va shoir ijodini kompleks tahlil qilish uchun yetarlicha ilmiy asos yaratadi.

Metodologiya: Tadqiqotda asosan badiiy tahlil, falsafiy mushohada, kontekstual yondashuv va adabiy manbalarni tahlil qilish usullari qo’llanildi.



Birinchiidan, Adib she'rining g'oyaviy asoslarini aniqlashda badiiy matn tahlili metodi asos qilib olindi. Bu usul she'rning ichki tuzilmasi, tasvir vositalari, poetik obrazlar tizimi va ularning mazmuniy uyg'unligini ochib berishga xizmat qildi.

Ikkinchiidan, falsafiy yondashuv orqali asarda ilgari surilgan insonparvarlik, yaratuvchanlik va tafakkur qudrati g'oyalari tahlil qilindi. Shoirning falsafiy qarashlari umumiy insoniy qadriyatlar, ijtimoiy mas'uliyat va ruhiy komillik bilan bog'liq holda ko'rib chiqildi.

Uchinchiidan, qiyosiy-tahliliy metod yordamida "Inson" she'ri mazmun jihatdan o'z davridagi falsafiy-lirik asarlar bilan solishtirilib, ularning o'zaro aloqadorlik jihatlari aniqlashtirildi. Shu orqali Vohidov ijodining o'ziga xos uslubi va falsafiy mushohada chuqurligi yoritildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

XX asrning 60-yillarida o'zbek she'riyatiga istiqlool g'oyasi, mustaqillik uchun kurash mavzusini hech ikkilanmay Erkin Vohidov olib kirganini aytish mumkin.

U ijodining boshlanishida:

Xalq- ustozim, men esa-tolib,

So'z durlarin termoqdir ishim.

Odamlarning o'zidan olib,

Odamlarga bermoqdir ishim. - degan tamoyilga qat'iy amal qilib yashaydi va ijodini shu tamoyil bo'yicha olib boradi. Shoirda vatanparvarlik ruhi ham kuchli bo'lgan. Uning ko'nglidagi vatanparvarlik hissi she'r-u dostonlariga ko'chgan. Shoirning "Quyosh maskani" dostonida Vatanni ozod ko'rinishini xohlagan haqiqiy o'g'lonlarning chin ko'ngil izhori yangraydi.



Hov ana, U yerda tugaydi o'rmon,

Davomi tutashdir, poyonsiz cho'lga

Cho'l men uchun eng aziz makon.

Ne ajab,

U tomon boqdim daf' atan,

Vujudimni tortdi bir ohangrabo,

O't ham ko'tarilar o'sha tarafdin,

O'sha yurt ustida porlaydi Zahro. [3.359]

Bu misradagi so'zlar shoir qalbidan kechgan hislar inkosidir. Bunda Vatan ozodligi-yu obodligi g'oyalari mujassam.

Erkin Vohidovning "Inson" she'rining bosh g'oyasi esa, insonning ilohiy qudrat egasi sifatida hayotga ma'no, ezgulik va yaratuvchanlik baxsh etuvchi kuch ekanligidir. Shoir bu orqali insonni faqat moddiy mavjudot emas, balki ruhiy va ma'naviy kamolot sari intiluvchi zot sifatida ko'rsatadi. Erkin Vohidovning "Inson" she'ri:

Sobit- ul sayyorada inson o'zing, inson o'zing,

Mulki olam ichra bir xoqon o'zing, sulton o'zing

Sobit o'z ma'vosida, sayyor fazo dunyosida,

Koinot sahrosida karvon o'zing, sarbon o'zing.

Misrasi bilan boshlanganligi bejizga emas. Shoir bu misrasi bilan she'rini inson sha'nini, qudratini va mas'uliyatini ulug'lashdan boshlaydi. U shunchaki "Inson haqida" emas, "Insonning o'zini anglash" mavzusini markazga qo'yadi. Shoir bu she'rini boshlanishi orqali: Insonni yaratuvchi



qudratning eng yuksak timsoli sifatida ko'rsatadi va insonning o'z taqdiriga, hayotiga, dunyosiga javobgar mavjudod ekanini ta'kidlaydi. Ya'ni, shoir "Inson o'zing, sulton o'zing, karvon o'zing va sarbon o'zing" – degan so'zlarida "Koinot ichidagi eng buyuk mavjudod, o'z taqdirining yaratuvchisi, hayot yo'lida yo'lchi ham, yo'lboshchi ham o'zi," ekanligidek falsafiy g'oyani ilgari suradi.

Shams-dil taftingdadur, sayyoralar kaftingdadur,

Keng jahon zabtingdadur, bog'bon o'zing, posbon o'zing

Bu yorug' dunyo nedur? Koshonadur, vayronadur,

Senga mehmonxonadur, mehmon o'zing, mezbon o'zing.

Bu misrada shoir "Insonning tafakkurini "sayyoralar kaftingda" – deb, aqli va ilmi bilan koinotni o'lchay oladi, tushunadi, hatto uni boshqaradi" degan ma'noni asosiy mezon qilib olgan. Ya'ni shoir insonni tabiatning passiv bo'lagi emas, balki yaratuvchi va izohlovchi kuch deb biladi. "Bog'bon va posbon" so'zlari bilan inson bu dunyoning egasi, balki mas'ul qo'riqchi ekanligini va u yaratgan olamni asrab-avaylashi, unga mehr bilan yondashishini hamda "Mehmon va mezbon" so'zlarida esa, inson hayotda - ham mehmon (ya'ni vaqtinchalik yashovchi), ham mezbon (ya'ni hayotini o'zi boshqaruvchi) ekanligini nazarda tutadi.

Mash'ali fikrat – sening, ham changali vahshat sening,

G'ayratu g'aflat sening, javlon o'zing, uryon o'zing.

Qildingu oyda xirom, ham yerda qon to'kding harom,

Ushbu holingdan mudom xandon o'zing, giryon o'zing.

Shoir ushbu misrada inson tabiatining murakkab, ziddiyatli mohiyatini ochib beradi. U insonni ikki qirrali mavjudod sifatida tasvirlaydi- bir



tomondan, u tafakkur va ma'rifat mash'alasini tutgan, aql va nur sohibi; boshqa tomondan esa, unda vahshiylik, g'aflat va yovuzlikning changali ham mavjud deb qaraydi. Shoir "Mash'ali fikrat sening, ham changali vahshat sening" deb insondagi bu ikki qarama – qarshi kuchni ochiq ifodalaydi. Inson hayotda buyuk ishlarga, ezgulikka, ijod va yaratuvchilikka qodir, lekin u bilan bir qatorda vayronkorlik, zulm va qon to'kishga ham moyil. "Qildingu ovda xirom, ham yerda qon to'kding harom" satri aynan shuni bildiradi. Shoir insonni o'z holatidan kulib ham, yig'lab ham turgan ziddiyatli mavjudod sifatida ko'rsatadi.

Sen hilol, yulduz, salib, Tavrot, Zaburdin yuksalib,

Boymisan yoki g'arib, kamron o'zing, yakson o'zing.

Kim farangi, kim habash, irq, qon talash, iymon talash,

Shulmi insondek yashash, armon o'zing, afg'on o'zing.

Bu misrada shoir insoniyatning bugungi ahvolini, din, millat va boylik sabab bo'layotgan adovatni tanqid qiladi. "Hilol, yulduz, salib, Tavrot, Zabur" – turli din va e'tiqodlarning ramzlari bo'lib, ularning barchasi aslida tinchlik va ezgulikka xizmat qilishi kerak. Ammo inson ularni nizo vozitasiga aylantirgan. "Boymisan yoki g'arib, Kamron o'zing, yakson o'zing" satri insoniyat o'zi yaratgan tengsizlik va zulm tufayli o'zini barbod qilayotganini, "Kim farangi, kim habash, irq, qon, talash, iymon talash"- insonlar orasidagi milliy, irqiy va diniy ajralishlar, adovat va kibrning kuchayib borayotganini, "Shumi insondek yashash, armon o'zing, afg'on o'zing" misrasida insoniyat o'z insoniyligini unutgani, urush va armon girdobida yashayotgani yuqoridagi fikrlarning achchiq ifodasidir.

Shoir "Inson" she'rini yurakdan chiqqan so'ngi faryod bilan yakunlaydi:

Ey, sen Erkin, sen bukun yozding dilingdan bir tugun,



Sen kimu ne dahri dun, biyron o'zing, nodon o'zing. [8.4]

Bu satrlar shoirning o'ziga, aslida esa butun insoniyatga qaratilgan vijdonli murojaatidir. She'r shu so'zlar bilan yakunlanar ekan, u o'quvchiga shunday ta'sir qoldiradiki- inson o'z holiga nazar tashlashi, o'zini anglashga, yuragini tozalashga, insoniy mohiyatini qayta topishga intilishi kerakligini anglaydi. Erkin Vohidov she'rlari- bu inson qalbining ichki dunyosini, uning kamolotini va ruhiy uyg'onishni yuksak badiiy ifoda bilan ochib beradigan ijod. Shoirning qarashlarida, she'r faqat badiiy so'z emas, balki yurakdan yurakka murojaat, insonni o'z nodonligi va kamchiliklarini anglashga chaqiruvchi vositadir. Shuning uchun uning she'rlari orqali inson faqat tashqi boylik va ramzlar bilan emas, balki ruhiy va ma'naviy kamolot bilan qadrlanishi kerakligi, adolat va mehr yo'lidan borish zarurligi ta'kidlanadi. Erkin Vohidovning ijodi o'quvchiga shunday ogohlantirish beradi: "O'zingni angla, ichki olamingni yuksaltir, insoniy qadriyatlarni asra"

Xulosa va takliflar: Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov she'rlari o'z navbatida nemis, ingliz, urdu, fransuz, hind va arab tillarida tarjima qilingan. Bir qancha xorij ijodkorlari E.Vohidov asarlarini yuqori baholagan. Ayniqsa, millatimiz, xalqimiz ma'naviy mulkingning bir qismiga aylanib ulgurgan, "Inson" qasidasining BMT minbarlaridan turli tillarda yangrashni har bir o'zbek qalbida yuksak faxr, g'urur tuyg'ularini junbushga keltirdi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Chunki bu qasida Erkin Vohidov ijodining shohbaytlari bo'lib, nainki, insonga, balki butun bashariyatga aytilgan go'zal alyordir. Yana shuni aytish kerakki, shoir she'rlarida asosiy g'oya va mazmun- avvalo, insonlarni vatanparvarlik, insoniylik, halollik, ezgulik va ruhiy poklik sari chorlaydi. U she'rlari yordamida inson ruhiyatini, hayot ma'nosini chuqur falsafiy yondashuvda yoritib berishi bilan birga, insonning o'zi, uning ichki dunyosi, vijdoni, or- nomusi, erkinlikka intilishini ochib beradi. U tabiat misolida insonni, insonning ichki holati yordamida esa



tabiatni tasvirlaydi. Shoirning ijodi umuman olganda, o'zbek xalqining ma'naviy olamining ifodasi, insonni poklik, halollik, vatanparvarlik, ezgulik va erkinlik sari yetaklovchi buyuk badiiy maktab asosidir. U insonni hayotga, Vatanga, millatga muhabbat ruhida tarbiyalaydi. Shoirning she'rlari bugun ham o'z ta'sirchanligi va dolzarbligini yo'qotmagan, aksincha, zamon bilan hamnafas holda yosh avlodni ma'naviy kamolot cho'qqisiga chorlab kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Sharq yulduzi" jurnali, 2013 yil, 2- son.
2. Shukur Qurbon "Erkin Vohidov saboqlari"
Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti,
Toshkent- 2016.
3. "E. Vohidov. Ishq savdosi. – T.: Sharq
nashriyot matbaa konserni.2000.
4. Tohir Malik. "Erkin Vohidov- xalq dardini
kuylagan shoir."- O'zbekiston adabiyoti va san'ati gazetasi, 1996.
5. Ozod Sharafiddinov. "Ijod mashaqqati"-
Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985.
6. R. Shokirova, "O'zbek adiblari" Toashkent-
2016 G.G'ulom nashroyot
7. Obidaxon Fayzullayeva: "Erkin
Vohidovning so'z qo'llash mahorati" Respublika onlayn ilmiy- amaliy
anjumani materiallari. Guliston- 2020. 575.b
8. D. M. Nasriyeva "El ardog'idagi shoir"
Academic Research in Educational Sciences. 2024.